



2019 YIL YANVAR-MAY OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQUARISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-may

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **12161,7 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **mlrd. so'mni**, ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **9576,5 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **21,1%** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-may oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **12161.7** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan .

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,9** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham xissa qo'shdi. Ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,3** foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **63,9** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **11903.6** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,9 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **160,5** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,3 %** ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **33,7** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni) tashkil etdi.



Yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat
korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarilishi

Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari		Hajmi, soni	2019 yil Yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yavar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)		dona	76905	52567
Paxtadan yigirilgan ip		tonna	9683,1	8308
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar		tonna	940,6	753.6
Tabiiy gaz		mln. kub. metr	18.87	15.97
O'simlik yog'i (tozalangan)		tonna	7271,8	6797,6
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'kilgan shnurlar va shu kabi buyumlar		tonna	107,2	133,9
Aroq – (spirt 100%)		ming litr	295.5	778

GM Uzbekistan nafaqat viloyatimiz balki Respublikamiz sanoatida muhim oʻrin egallaydi. Ayni paytda yurtimiz yoʻllari va koʻplab davlatlar avtomagistrallarida kechayu kunduz harakatlanayotgan «Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi ostidagi yuz minglab mashinalar iqtisodiyotimizning samaradorligi va yuksak salohiyatini namoyish etmoqda.

Viloyatda GM Uzbekistan tomonidan 2019 yil yanvar-may oylarida 76905 dona avtomobil ishlab chiqarildi. Shuni alohida taʼkidlab oʻtish joizki, korhona tomonidan yanvar oyidan boshlab yangi Tracker rusumli avtomobil ishlab chiqarish boshlandi.

2019 Yanvar-may oylarida GM UZBEKISTAN tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar soni (dona)




Ishlab chiqarilgan avtomobillar nomi	2019 yil yanvar-may oylarida	2018 yil yanvar-may oylarida
MATIZ	0	2649
SPARK	7854	8471
NEXIA T 250	28650	18908
COBALT	19823	10175
GENTRA	16132	9096
MALIBU	2361	1025
CAPTIVA	6	2243
TRACKER	2079	0
JAMI	76905	52567

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 62,4 % ulushini), Andijon shaharlari 15,5 %, Honobod shaharlari 3,4 %, Shahrixon 2,8 %, Andijon 2,9 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,4 %), Ulug'nor (0,5 %), Paxtaobod (0,6 %) va Buloqboshi (0,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-may oylarida jami 12161.7 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 7590,9 mlrd so'mni, Andijon shahrida 1886.4 mlrd so'mni, Honobod shahrida 410.8 mlrd so'mni, shahrixon tumanida esa 335,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora — tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **9576,5** mlrd.so'mni tashkil etdi va ja'mi sanoatdagi ulushi esa **79,0 %** ga yetdi.


2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 9576,5 mlrd.so'm

2-diagramma




Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



2019 yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

4-diagramma




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 21,1 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

7-diagramma



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtaobod tumanida (99,8 %), Baliqchi tumanida (99,0 %) va Hojaobod tumanida (88,4 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,6 %), Honobod shahri (15,8 %) kuzatildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 23736,4 ming so'm, Honabod shahrida 9828,4 ming so'm, Andijon shahrida 4340,4 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 3958,9 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

6-diagramma

